

"Maxam-Chirchiq" Ajda sodir bo`lgan portlash yuzasidan qo`shimcha ma'lumot

// 04.10.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxsam-chirchiq-rasmiy-bayonot-qushimcha-malumot>



"O'zbekimiyosanoat" AJ tizimidagi "Maxam-Chirchiq" Ajning Ammiak-1 ishlab chiqarish sexi sintez bo`linmasida bugun sodir bo`lgan portlash va yong`in natijasida korxonaning boshqa ishlab chiqarish maydonlari hamda aholi yashash punktlariga zarar yetmagan. Shu bilan birga atrof muhitga zararli gazlar tarqalmagan. Bu bo`yicha barcha xavfsizlik chorolari o`z vaqtida ko`rilgan. Yong`inni bartaraf etish ishlari olib borilmoqda. Korxonaning barcha boshqa sexlari uzluksiz belgilangan tartibda ish faoliyatini davom ettirmoqda.

Voqea joyiga zudlik bilan yetib borgan O`zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o`rinbosari – Energetika vaziri J. Mirzamahmudov boshchiligidagi komissiya a`zolari, O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A. Qo'ldoshev, "O'zbekimiyosanoat" AJ rahbariyati va mutaxassislari, IIV va boshqa tegishli mutasaddilar tomonidan hodisa sabablari va oqibatlari to`liq o`rganilmoqda.





uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26



uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26

“O`zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati